

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“DAVLAT BOJXONA XIZMATI TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTISHLAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-
avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 30-sentabrda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Davlat bojxona xizmati to'g'risida”gi 472-I-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrda qabul qilingan O'RQ-502-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 10, 678-modda; 2019-yil, № 5, 265-modda, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) **3-modda:**

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etish”;

yettinchi — o'n uchinchi xatboshilari tegishincha sakkizinchi — o'n to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2) 6-moddaning **sakkizinchi qismi** “umumiy shtatlari soni” degan so'zlardan keyin “va mehnatga haq to'lash fondi” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

3) **7-modda:**

quyidagi mazmundagi to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“bojxona auditini amalga oshirish”;

to'rtinchi — o'n ikkinchi xatboshilari tegishincha beshinchi — o'n uchinchi xatboshilar deb hisoblansin;

quyidagi mazmundagi o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“jismoniy va yuridik shaxslarga qonunchilikda belgilangan tartibda pulli xizmatlar ko'rsatish”;

o'n uchinchi xatboshisi o'n to'rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

4) **11-modda:**

quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Bojxona organlari xodimlari bojxona nazoratini amalga oshirishda maxsus vosita sifatida xizmat itlaridan foydalanishi mumkin”;

to'rtinchi qismi beshinchi qism deb hisoblansin;

5) 13-moddaning **to'rtinchi** va **beshinchi qismlari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Alohida hollarda, bojxona organlariga xizmatga ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida ko'rsatilgan talablar inobatga olinmagan holda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori yoki farmoyishi, shuningdek roziligi yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori yoxud O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i asosida — boshqa davlat organlarining va tashkilotlarining xodimlari;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i asosida — yoshi o'ttizdan oshgan, tor ixtisoslikdagi yuqori malakali mutaxassislar qabul qilinishi mumkin.

Quyidagilar bojxona organlariga xizmatga qabul qilinishi mumkin emas:

muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolar;

xizmatni o'tashga monelik qiladigan kasalligi yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan fuqarolar;

boshqa davlat organlaridan salbiy sabablarga ko'ra bo'shatilgan fuqarolar;

sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilinganlar, qo'llanilgan jazo turidan, sudlanganlik holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan va o'ziga nisbatan amnistiya akti yoki afv etish qo'llanilganligidan qat'i nazar yoxud yarashuv munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan fuqarolar”;

6) 16-modda:

ikkinchi va uchinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bojxona organlarining serjantlar tarkibi lavozimlariga qabul qilingan shaxslarga ularni lavozimga tayinlash bilan bir vaqtda “bojxona xizmati kichik serjanti” maxsus unvoni beriladi.

Bojxona organlarining ofitserlar tarkibi lavozimlariga qabul qilingan shaxslarga ularni lavozimga tayinlash bilan bir vaqtda “bojxona xizmati katta serjanti” maxsus unvoni beriladi, ular bu unvonda dastlabki sinov muddati tugab, birinchi ofitserlik unvoni berilguniga qadar xizmat qiladi”;

quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Bojxona organlarida lavozimlar (ofitser va serjantlar egallashi lozim bo'lgan shtat lavozimlari) va ularga muvofiq maxsus unvonlar O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan bojxona organlarining shtatlarida nazarda tutiladi”;

to'rtinchi — o'ttizinchi qismlari tegishincha beshinchi — o'ttiz birinchi qismlar deb hisoblansin;

oltinchi qismidagi “nomzodlarga” degan so'z “shaxslarga” degan so'z bilan almashtirilsin;

sakkizinchi qismidagi “mayor” degan so'z “bojxona xizmati mayori” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi qismidagi “polkovnik” degan so'z “bojxona xizmati polkovnigi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'ninchi qismining:

birinchi xatboshisidagi “leytenant” degan so'z “bojxona xizmati leytenanti” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshisidagi “sinov muddatini” degan so'zlar “birlamchi kasbiy qayta tayyorgarlikni” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n ikkinchi qismining ikkinchi — to'qqizinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bojxona xizmati kichik serjanti — ikki yil;

bojxona xizmati serjanti — ikki yil;

bojxona xizmati katta serjanti — muddatsiz;

bojxona xizmati leytenanti — ikki yil;

bojxona xizmati katta leytenanti — ikki yil;

bojxona xizmati kapitani — uch yil;

bojxona xizmati mayori — to'rt yil;

bojxona xizmati podpolkovnigi — besh yil”;

o'n uchinchi qismidagi “Polkovnik” degan so'z “Bojxona xizmati polkovnigi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n to'rtinchi qismidagi “o'n birinchi qismi” degan so'zlar “o'n ikkinchi qismi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n to'qqizinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pensiya olish huquqini, shuningdek navbatdagi maxsus unvonni berish imkonini beradigan xizmat yillariga ega bo'lgan, egallab turgan lavozimi bo'yicha eng yuqori maxsus unvoni “bojxona xizmati kapitani” etib belgilangan, ishda ijobiy tavsiflanadigan bojxona organlarining ofitserlar tarkibidagi xodimlariga xizmatdan bo'shatish bilan bir vaqtda “bojxona xizmati mayori” maxsus unvoni berilishi mumkin”;